



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№7
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 306 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Umarova H. O'. – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G' B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari	16
Doniyorov Salim Musurmonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	23
Nazarov Odil Omanqulovich	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni	27
Abirova Umida Nazarovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati.....	30
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari	34
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati	38
Salimova Dilmira Farxodovna	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar	41
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich	
Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati.....	44
Boltayev Baxtiyor Yunusovich	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar	48
E. Po'latova	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ...	51
Egamova Ravshanoy Surobjonovna	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin? Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	55
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi	60
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons	63
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish	67
Nomozova Dilobar Suyun qizi	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar	72
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories	75
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature	80
Ruzieva Maftuna	
Onlayn va gibrid ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	85
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "Metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida).....	88
Sharipova Hakima Shavkatovna	
Metacognition and Self-Regulated Learning	92
Turayeva Nazira Ibragimovna	
Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода	95
Меденцева Наталья Петровна	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari	100
Jonibekov Jasur Jonibekovich	



O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	105
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi	
Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi.....	108
Bakayev Najmiddin	
Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida.....	112
Egamova Madina Qobil qizi	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari.....	116
Egamova Shukriya Amanovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari	119
G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi	
Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullariga o'tish	124
G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich	
Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	128
Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	131
Ikromova Munisa Sheraliyevna	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari	134
Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna	
Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar	138
Jumanova Iroda Shokirjon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	141
Jumayeva Sarvinoz Ilhombekovna	
Talabalarda nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirish texnologiyasi	145
Kiyamova Maxbuba Sultanovna	
Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlari	148
Mamadiyrov Jamol	
Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari.....	152
Sharipova Firuza Mehriddinovna	
Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli	155
Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li	
Maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida.....	159
Xallokova Maksudaxon Ergashevna	
Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari.....	162
Xatamova Ferangiz Ibodulloevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	166
Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna	
Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzalliklari.....	170
Yodgorova Gulrux Farhodovna	
Совершенство методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования.....	174
Юлдашев Эргаш Сабинович	
O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	177
Kudenov Temurbek Maxsetbaevich	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida	180
Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna	
Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar	185
Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi	
The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes.....	189
Meliboyev Zuxriddin Isroil ugli	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	<p>O'zbekiston tarixi darslarida pedagogik improvizatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari 192 Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna</p> <p>Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi..... 196 Arslanova Umidaxon Komiljon qizi</p> <p>Baxtli pedagoglar sirlari yoki kasbdagi subyektiv farovonlik 201 Adilova Zulfiya Djavdatovna</p> <p>Ayollarning siyosiy faolligini oshirishda gender kvotalarining o'rni 204 Abdukaxorova O'g'iloy Isroiljon qizi</p> <p>The Content of Developing Students' Communicative Culture Through a Bilingual Approach 207 Abdukhalilova Feruzakhon Ulugbek kizi</p> <p>Maktabgacha yoshdagi nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini shakllantirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati..... 210 Abdullayeva Ugiloy Djurayevna</p> <p>Chet tili intellektual va kasbiy rivojlanish kaliti 214 Aripova Sayida Abdulaxatovna</p> <p>Raqamli etiket: zamonaviy ta'limda yangi madaniyat talabi 217 Rasuljon Atamuratov</p> <p>Raqamli xiyonat: zamonaviy munosabatlar va sodiqlik inqirozi..... 221 Azizova Shodiya Utkur qizi</p> <p>Badiiy tarjimada leksik birliklarning lingvomadaniy aspektlari 224 Mardiyeva Maxbuba Shavkatovna</p> <p>O'quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturiy platformani pedagogik loyihalash..... 228 Obloqulov Sulaymon Maxmayusuf o'g'li</p> <p>Kurashchilar orasida jarohatlarning oldini olish: reabilitatsiya va profilaktik uslublar 232 Ochilova Sarvinoz Salim qizi</p> <p>Xalq og'zaki ijodi vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlarini 236 Oxunova Nozimaxon Mirzag'ulom qizi</p> <p>Loyiha asosidagi o'qitish orqali yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish usullari..... 239 Risvayeva Charos Zaydilla qizi</p> <p>Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'yinlar vositasida o'rgatishga qaratilgan mashq va topshiriqlarning samaradorligi 242 Toshniyozova Dildora, Meliyeva Nargizaxon</p> <p>Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish modeli 245 Tursunova Dilnoza Adhamjon qizi</p> <p>Shaxs rivojlanishida pedagogika va psixologiyaning o'rni 248 Umirova Guldon Jamoliddin qizi</p> <p>Toshkent shahri havosi ifloslanishining sabablari va oldini olish choralari 251 Ungalov Akmal Navruzovich</p> <p>Sun'iy intellekt asosida tuzilgan interaktiv platformalar va ulardan foydalanuvchi tajribasi 254 Xabirova Zulfiya Anvarbekovna</p> <p>Talabalar ijtimoiy faollik indeksini rivojlantirishda tyutorlik faoliyatining o'rni va ahamiyati 257 Xamrakulov Jasurbek Muxammadjon o'g'li</p> <p>Hozirgi davr pedagogikasida sharqona ta'limning ahamiyati..... 260 Yuldasheva Mastura Islamovna</p> <p>Пословицы и поговорки как отражение картины мира 263 Алламбергенова Шахноза Садатдиновна</p> <p>Raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirishda mustaqil ta'limning o'rni 268 Abdumannopov Muhammadsahib Muhammadyusuf o'g'li</p> <p>Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy-kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlar..... 272 Khadicha Mukhamadiyeva Karomatovna</p>
-------------------------------------	--



Zamonaviy didaktik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning analitik va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish.....	277
Mo'minova Gulhayo Turg'unboy qizi	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari	280
O'rinova Nilufar Muhammadovna	
Aholi o'rtasida yoshlarning pedagogik intervensiyalar orqali ilmiy faolligini oshirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish metodikasi.....	286
Raximov Xasanboy Kamoliddin o'g'li	
Buyuk ipak yo'li – yangi geosiyosiy va iqtisodiy aloqalarning tarixiy asosi sifatida.....	290
Tugalova Madina Erkin qizi	
Ilk maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiya.....	293
Umarova Muyassarxon A'zamjonovna	
Rus tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari	297
Xanova Dilrabo	
Didactic Possibilities of Teaching English in Primary Schools Based on 3D Interactive Technologies	303
Kholiqova Lutfiya Umurzoqovna	



RUS TILIDA O'QISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI

Xanova Dilrabo

Termiz Iqtisodiyot va Servis Universiteti
rus tili o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada rus tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari ilmiy-nazariy hamda amaliy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. O'qish ko'nikmasining zamonaviy talablarga mos shakllanishida lingvodidaktik va psixolingvistik yondashuvlarning ahamiyati, o'quvchilar va talabalar uchun bosqichma-bosqich o'qitish strategiyalari, interaktiv va innovatsion metodlarning roli asoslab beriladi. Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar, matn tanlash mezonlari, motivatsion muhit yaratish, o'qish ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish tajribalari ilmiy asosda yoritib berilgan. Shuningdek, rus tilida o'qish ko'nikmasining shakllanishiga ta'sir etuvchi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari asosida amaliy tavsiyalar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: rus tili, o'qish, o'qitish, ko'nikma, motivatsiya, metodika, yondashuv, lingvodidaktika, interaktiv metod, pedagogik texnologiya, innovatsiya, kommunikativ yondashuv, kompetensiya.

Abstract: This article analyzes the theoretical and methodological foundations for the development of reading skills in Russian from both scientific-theoretical and practical perspectives. It substantiates the significance of linguodidactic and psycholinguistic approaches in shaping modern reading competence, stage-by-stage teaching strategies for students and pupils, and the role of interactive and innovative methods. The article scientifically justifies the use of modern pedagogical technologies, criteria for text selection, creation of a motivational environment, and experiences in the phased development of reading skills. Furthermore, it examines the key problems affecting the formation of reading skills in Russian and proposes solutions. Practical recommendations are provided based on the research findings.

Key words: Russian language, reading, teaching, skill, motivation, methodology, approach, linguodidactics, interactive method, pedagogical technology, innovation, communicative approach, competence.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические и методические основы развития навыков чтения на русском языке с научно-теоретической и практической точек зрения. Обосновывается значимость лингводидактического и психолингвистического подходов в формировании современной читательской компетенции, поэтапные стратегии обучения студентов и школьников, а также роль интерактивных и инновационных методов. В статье научно обоснованы современные педагогические технологии, критерии отбора текстов, создание мотивационной среды и опыт поэтапного формирования навыков чтения. Также рассматриваются проблемы, влияющие на развитие навыков чтения на русском языке, и предлагаются пути их решения. На основе результатов исследования представлены практические рекомендации.

Ключевые слова: русский язык, чтение, обучение, навык, мотивация, методика, подход, лингводидактика, интерактивный метод, педагогическая технология, инновация, коммуникативный подход, компетенция.

KIRISH

Bugungi globallashuv va ta'lim sohasida kechayotgan modernizatsiya jarayonlari xorijiy tillarni, xususan, rus tilini o'rgatish jarayoniga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Rus tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi oliy va umumiy ta'lim tizimi uchun dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. O'qish ko'nikmasi nafaqat til bilimining asosiy komponenti, balki axborotni izlab topish, anglash, qayta ishlash va mustaqil ta'lim olish uchun zarur bo'lgan muhim kompetensiyalardan biridir.

Hozirgi kunda zamonaviy o'quvchi va talabalar uchun rus tilidagi matnlarni to'liq va ongli o'qish, asosiy va ikkilamchi g'oyalarni ajrata olish, axborotni tahlil qilish, shuningdek, matn asosida o'z fikrini aniq ifodalash qobiliyatlari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu boisdan, rus tilida o'qish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy-nazariy hamda metodik asoslarini chuqur o'rganish, samarali strategiya va metodlarni aniqlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Demakki, rus tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish bugungi globallashuv jarayonida xorijiy tillarni o'rgatish metodikasi sohasidagi eng muhim masalalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayni paytda oliy ta'lim muassasalari va umumiy o'rta ta'lim maktablarida talabalar hamda o'quvchilarning rus tilidagi matnlarni to'liq va ongli o'qish, ularni o'zlashtirish, shuningdek, ular asosida mustaqil bilim hosil qilish layoqatini shakllantirish zamonaviy kompetensiyalar tizimining ajralmas qismiga aylangan.

Bu jarayonning samaradorligi, avvalo, o'qish ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish uchun zarur bo'lgan nazariy va metodik asoslarning chuqur o'rganilishiga, shuningdek, zamonaviy didaktik vositalarning to'g'ri tanlanishi va amaliyotga tatbiq etilishiga bevosita bog'liqdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING SHARHI

Interaktiv metodlar rus tilini o'rgatishda an'anaviy o'qitish modellaridan farqli o'laroq, talabani faol ishtirokchi sifatida o'quv jarayoniga jalb etishga yo'naltirilgan bo'lib, bu o'qish ko'nikmasini shakllantirish va mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi¹. Ta'lim jarayonida interaktiv texnologiyalar (klauster, "INSERT", "Aqliy hujum", "Venn diagrammasi", rolli o'yinlar va boshqalar)ni qo'llash talabalarining matn bilan mustaqil ishlash, fikr yuritish, asosiy g'oyani ajratish va xulosa chiqarish salohiyatini oshiradi.²

Rus tilidagi matnlarni ongli o'qish talabani nafaqat leksik va grammatik bilimlarini, balki tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish kabi kognitiv faoliyatini ham faollashtiradi. Bu yondashuv ta'limning kompetensiyaga asoslangan modellari bilan uyg'unlashadi. Bunday yondashuv haqida N.D. Galskova ta'kidlaydi: "Interaktiv usullar talabalarining tilni faqat bilish emas, balki undan foydalanish qobiliyatini shakllantiradi"^{[1]3}.

Shuningdek, o'zbek tadqiqotchisi D.R. Ahmedova ta'kidlaganidek, talabalar rus tilida o'qishni o'rganish jarayonida nafaqat leksik va sintaktik bilimlarga, balki motivatsiya, mulohaza yuritish hamda matn tuzilmaviy tushunish qobiliyatiga ega bo'lishlari zarur.⁴ Uning fikriga ko'ra, interaktiv metodlar asosida olib borilgan darslarda erishilgan natijalar an'anaviy darslarga nisbatan yuqori bo'lgan^[2].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish nafaqat dars jarayonini jonlantiradi, balki talabani nutqiy, madaniy hamda axborot bilan ishlash salohiyatini ham rivojlantirish vositasidir.⁵ Shu sababli, rus tilida o'qish ko'nikmasini takomillashtirishda interaktiv metodlarning samaradorligini nazariy va amaliy jihatdan asoslash ta'lim metodologiyasining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan⁶.

Rus tilida o'qish ko'nikmalarini shakllantirishga oid ilmiy-adabiy manbalarni tahlil qilish natijasida, bu sohada bir qator klassik va zamonaviy yondashuvlar mavjudligini kuzatish mumkin. Avvalo, o'qish jarayoni psixolingvistik va lingvodidaktik mezonlar asosida tahlil qilinadi. O'qish – bu faqat so'z va gaplarni talaffuz qilish emas, balki matn mazmunini chuqur anglash, axborotni ajratish va uni qayta ishlashdan iborat murakkab kognitiv faoliyatdir.

Lingvodidaktik yondashuvda o'qish ko'nikmasining shakllanishi o'quvchi yoki talabani faol ishtirokchiga aylantirish orqali amalga oshiriladi. Zamonaviy metodikada esa o'qish faoliyati bosqichlarga ajratilib, har bir bosqich uchun aniq vazifalar, mashqlar va interaktiv metodlar ishlab chiqiladi.

Rus tilida o'qish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish sohasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar, asosan, lingvodidaktik yondashuv, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, matn bilan ishlash strategiyalari hamda interaktiv o'qitish metodikalariga tayangan. O'qish – bu murakkab, ko'p bosqichli nutq faoliyati bo'lib, talabani kognitiv (bilish), affektiv (emotsional) va kommunikativ jihatlarini birgalikda faollashtiradi. Shu bois, so'nggi yillarda bu boradagi adabiyotlarda aynan integrallashgan, shaxsga yo'naltirilgan, faol ta'lim metodlari bo'yicha ko'plab nazariy va amaliy izlanishlar olib borilmoqda.

Masalan, N.D. Galskova va N.I. Gez⁷ o'z asarlarida xorijiy tilni o'qitishdagi lingvodidaktik prinsiplarni aniq belgilab, o'quvchining shaxsiy faolligi, motivatsiyasi va axborot bilan mustaqil ishlash qobiliyatini asosiy mezon sifatida ko'rsatadilar. Ularning ta'kidlashicha, o'qish faoliyatida talabalarining faol ishtirokini ta'minlash uchun o'qituvchi matnni tanlashdan tortib, uni tahlil qilish va qayta ifodalashgacha bo'lgan barcha bosqichlarni interaktiv shaklda tashkil etishi lozim^[3].

E.I. Passov⁸ esa o'qish ko'nikmasini shakllantirishda kommunikativ yondashuvning ustunliklarini ta'kid-

1 Ларин А. А. Интерактивные методы обучения: теория и практика. - Москва: Юрайт, 2021. - 288 с

2 Пассов Е. И. Коммуникативная методика обучения иноязычному чтению. - Москва: Просвещение, 2019. - 192 с.

3 Гальскова Н. Д., Гез Н. И. Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика. - Москва: Академия, 2017. - 336 с.

4 Ахмедова Д. Р. Рус тилини ўқитишда интерфаол методлардан фойдаланишнинг самарадорлиги // Тил ва адабиёт таълими. - 2022. - №3. - Б. 45-49.

5 Турсунова М. Ю. Рус тили дарсларида ўқувчиларнинг ўқиш малакасини шакллантиришнинг замонавий усуллари // Таълим ва тараққиёт. - 2021. - №3. - Б. 101-105.

6 Қодирова Г. Т. Рус тилини ўрганишда ўқув мотивациясини ошириш йўллари // Филологик тадқиқотлар. - 2021. - №4. - Б. 75-80.

7 Гальскова Н. Д., Гез Н. И. Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика. – Москва: Академия, 2017. – 336 с.

8 Пассов Е. И. Коммуникативная методика обучения иноязычному чтению. – Москва: Просвещение, 2019. – 192 с.



laydi. Unga ko'ra, talabalarni matn bilan ishlashga faol jalb etish – savol-javob, prognozlash, mazmun bo'yicha bahslashish, ro'yxat tuzish, retsenziya yozish kabi faol mashg'ulotlar orqali o'qish ko'nikmasini shakllantirish va mustahkamlashga xizmat qiladi ^[4].

S.G. Smirnova⁹ tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda rus tilidagi matnlarni ongli o'qish uchun zarur bo'lgan psixolingvistik mexanizmlar tahlil qilinadi. Unga ko'ra, talabalar o'qish jarayonida nafaqat so'z ma'nosini, balki umumiy kontekstni anglash qobiliyatini ham rivojlantirishi kerak. Bu esa interaktiv faoliyatlar orqali yuzaga chiqadi ^[5].

O'zbek tadqiqotchilari ham ushbu mavzuda samarali ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. D.R. Ahmedova¹⁰ tomonidan rus tili darslarida interaktiv metodlarni qo'llash samaradorligi bo'yicha olib borilgan tadqiqotda, klaster, rolli o'yin, SWOT-tahlil, INSERT, Venn diagrammasi kabi usullardan foydalangan guruhlarda talabalar matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalari yuqoriligi qayd etilgan ^[6].

Z.A. Sodiqova¹¹ boshlang'ich ta'limda rus tilini o'rgatishda zamonaviy interaktiv texnologiyalarning qo'llanilishi natijasida o'quvchilarning ma'naviy, madaniy va leksik zaxirasi oshganini ta'kidlaydi. U interaktiv o'qitish formalari orqali talabalarda mustaqillik va ijodiy fikrlashning shakllanishiga alohida e'tibor qaratgan ^[7].

G.T. Qodirova¹² tomonidan talabalarining motivatsiyasini oshirishda interaktiv usullarning ta'siriga bag'ishlangan tadqiqotda, o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirilgan va ijtimoiy-faollashtiruvchi metodlar asosida tashkil etish orqali ularning o'qishga bo'lgan qiziqishi ortib borayotgani ko'rsatib o'tilgan ^[8].

Mavjud adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, rus tilida o'qish ko'nikmasini rivojlantirishda faqat leksik-grammatik mashqlar emas, balki interaktiv va integrallashgan yondashuvlar asosida faol bilim olish muhiti yaratish muhimdir. Bugungi kunda til o'rgatishda yuqori samaradorlikka erishish uchun matn tanlash mezonlari, interfaol ishlanmalar, ta'lim texnologiyalari va shaxsga yo'naltirilgan metodlarni uyg'unlashtirish alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Rus tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda nazariy va metodik asoslarni chuqur o'rganish, lingvodidaktik hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish zamonaviy ta'lim tizimi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bosqichma-bosqich o'qitish, motivatsion muhit yaratish, interaktiv va kommunikativ metodlardan foydalanish o'qish ko'nikmasining samarali shakllanishiga xizmat qiladi. Matn tanlashda dolzarblik, madaniy moslik va axborot boyligi kabi mezonlarni inobatga olish zarur.

O'qituvchi tomonidan differensial va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida o'qish jarayonini tashkil etish, yordamchi materiallar, vizual va audiomateriallardan keng foydalanish natijasida talabalar hamda o'quvchilarning mustaqil tahliliy fikrlashi, axborotni izlab topish va uni qayta ishlash ko'nikmalari rivojlanadi. Kelgusida rus tilini o'qitishda innovatsion metodlarni yanada keng joriy etish, o'quvchilarning kreativ va kommunikativ salohiyatini rivojlantirish ta'limning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

Ushbu tadqiqotda rus tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan interaktiv metodlarning didaktik samaradorligini aniqlash va amaliy jihatdan asoslash maqsad qilib olingan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida zamonaviy til o'qitish metodlari, lingvodidaktik tamoyillar hamda psixopedagogik yondashuvlar tahliliga asoslangan kompleks yondashuvlar qo'llanilgan. Metodologik asos sifatida konstruktivistik pedagogika, kommunikativ kompetensiya nazariyasi hamda faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv konsepsiyasi tanlab olingan.

Tadqiqotda qo'llanilgan asosiy metodlar quyidagilardan iborat:

- 1. Nazariy tahlil usuli** – mavzuga doir mavjud ilmiy manbalarni (monografiyalar, maqolalar, dissertatsiyalar, darsliklar) o'rganish orqali interaktiv metodlarning nazariy asoslari, rus tilida o'qish ko'nikmalarining tarkibiy qismlari va rivojlanish bosqichlari aniqlab chiqildi. Bu jarayonda lingvodidaktika, psixolingvistika, metodika va umumiy pedagogika sohasidagi so'nggi tadqiqotlar tahlil qilindi.
- 2. Empirik usullar** – o'quv jarayonida interaktiv metodlarni qo'llash orqali ularning samaradorligini baholash maqsadida kuzatuv, so'rovnomalar, suhbat va diagnostika mashqlari ishlatilgan. Ushbu usullar yordamida talabalar bilan olib borilgan eksperimental mashg'ulotlar natijalari asosida interaktiv yondashuvlarning real amaliy samarasiga baho berildi.

9 Смирнова С. Г. Психолингвистические аспекты формирования навыков чтения. – Екатеринбург: Уральский университет, 2018. – 210 с.

10 Ахмедова Д. Р. Рус тилини ўқитишда интерфаол методлардан фойдаланишнинг самарадорлиги // Тил ва адабиёт таълими. – 2022. – №3. – Б. 45–49.

11 Содикова З. А. Бошлангич таълимда рус тилини ўргатишда инновацион технологиялар // Педагогика ва психология. – 2022. – №2. – Б. 90–95.

12 Қодирова Г. Т. Рус тилини ўрганишда ўқув мотивациясини ошириш йўллари // Филологик тадқиқотлар. – 2021. – №4. – Б. 75–80.

- 3. Eksperimental pedagogik tadqiqot** – tadqiqotning amaliy bosqichida rus tili fanidan dars beruvchi o'qituvchilar bilan hamkorlikda eksperimental sinf va nazorat sinfi shakllantirilib, ikki xil metodik yondashuv (interaktiv va an'anaviy) asosida o'qitish tashkil etildi. Eksperiment davomida talabalar bilimlari va ko'nikmalari maxsus diagnostik testlar hamda matnga asoslangan baholash vositalari yordamida o'lchandi.
- 4. Matematik-statistik tahlil** – eksperiment yakunida olingan ma'lumotlar statistik usullar yordamida qayta ishlanib, interaktiv metodlar qo'llangan guruh bilan nazorat guruhi o'rtasidagi farq T-test (Student testi) asosida aniqlangan. Bu usul metodika samaradorligining miqdoriy ko'rsatkichlarini aniqlash imkonini berdi.
- 5. Taqdimotli va taqqoslov usul** – eksperiment natijalarini izohlash hamda ularni ilgari o'rganilgan nazariy manbalar bilan solishtirish orqali metodikaning dolzarbligi va innovatsion qadri baholandi. Ushbu yondashuv, shuningdek, mavjud ilg'or tajribalarning mos jihatlarini aniqlashda ham foydali bo'ldi.

Tadqiqot doirasida o'rganilayotgan hodisalar va metodik yechimlar talabalar faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatganligi sababli, metodologiya talabalarning individual o'zlashtirish darajasi, til bilimlari bo'yicha tayanch ko'nikmalari, matn bilan ishlashdagi psixologik qiyinchiliklar hamda motivatsion omillarni inobatga olgan holda qurildi.

Metodologik jihatdan tadqiqot quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- 1. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv** – har bir talabani individual o'zlashtirish sur'ati va qiziqishini hisobga olish;
- 2. Faollik va interaktivlik** – talabani passiv bilim oluvchidan faol ishtirokchiga aylantirish;
- 3. Integratsiyalashgan yondashuv** – til ko'nikmalarini (eshitish, yozish, og'zaki nutq) o'qish bilan uyg'unlikda rivojlantirish;
- 4. Refleksivlik** – talabani o'z ta'limiy faoliyatini tahlil qilishga va natijalarni tushunishga yo'naltiruvchi metodlarni qo'llash.

Ushbu metodologik asoslar, nazariy tahlil va amaliy eksperiment natijalariga tayangan yondashuvlar rus tilida o'qish ko'nikmalarini zamonaviy pedagogik talabalar asosida samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy asos sifatida, o'qish faoliyati avvalo quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: fonetik darajadagi o'qish (so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish), leksik-semantik darajadagi o'qish (so'z va iboralarning ma'nosini anglash), sintaktik darajadagi o'qish (gap va matn tuzilishini idrok etish), nihoyat esa, matn mazmunini tushunish va uni qayta ifodalash. Bu jarayonda talabalar faqat so'zlarni emas, balki kontekstni, matndagi asosiy va ikkilamchi g'oyalarni aniqlay olishlari lozim. Shu nuqtai nazardan, nazariy yondashuvlar rus tilidagi o'qish ko'nikmasi orqali o'quvchining intellektual va kommunikativ salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

O'qitish metodikasida esa, samarali natijalarga erishish uchun turli interaktiv va kommunikativ metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, interaktiv o'yinlar, rolli o'yinlar, matnli testlar, klaster, aqliy hujum (brainstorming), "INSERT" texnologiyasi, diskussiya, matn asosida savol-javob, "Venn diagrammasi", chizmalı jadval va loyihaviy ishlar (project method) o'qish ko'nikmasini rivojlantirishda muhim vositalar sifatida e'tirof etiladi. Mazkur metodlarning har biri, ayniqsa, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, matndan axborot izlab topish, asosiy g'oya va dalillarni ajratib olish, notanish so'zlarni kontekstda anglash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (interaktiv ta'lim platformalari, elektron resurslar, mobil ilovalar) foydalanish o'qish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Talabalar uchun motivatsion muhit yaratish, ta'lim jarayonida ko'p tarmoqli mashqlarni qo'llash va real kommunikativ vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar berish rus tilida o'qish ko'nikmasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

O'qish ko'nikmalarini shakllantirishda matn tanlash mezonlari ham muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar matn tanlashda uning mavzudagi dolzarbligi, zamonaviyligi, leksik va grammatik mosligi, madaniy kontekstga uyg'unligiga alohida e'tibor qaratishlari lozim. Shuningdek, o'quvchilarning yoshi va tayyorgarlik darajasiga mos, qiziqarli va informatsion boy matnlarni tanlash zarur. Tanlangan matnlar asosida savol-javoblar, izohli lug'atlar, asosiy g'oyalarni ajratish, annotatsiya va rezyume yozish, dialog va monolog tuzish kabi topshiriqlardan keng foydalanish mumkin.

Tadqiqotning amaliy bosqichi davomida rus tilida o'qish ko'nikmalarini shakllantirishda interaktiv metodlarning samaradorligini aniqlash maqsadida pedagogik eksperiment o'tkazildi. Eksperiment jarayonida ikki xil guruh: nazorat guruhi (an'anaviy metodlar asosida o'qitilgan) va tajriba guruhi (interaktiv metodlar asosida mashg'ulotlar tashkil etilgan) faoliyati kuzatildi.



Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, interaktiv metodlarga asoslangan darslar talabalarni o'qish faoliyatida faol, mustaqil va kreativ subyektga aylantiradi. Bu holat zamonaviy kompetensiyaviy ta'lim yondashuvlariga to'liq mos keladi va rus tilini o'rganishdagi samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

Metodik tajribalar asosida aniqlanishicha, o'qish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda bosqichma-bosqich yondashuv asosiy rol o'ynaydi. Dastlabki bosqichlarda fonetik va leksik mashqlar bajariladi, keyingi bosqichlarda esa sintaktik va tekstual darajadagi topshiriqlar kuchaytiriladi. O'quvchilar avval qisqa va sodda matnlarni o'qib, ularning mazmunini qisqacha ifodalaydilar, so'ngra asta-sekin murakkab va hajmli matnlarga o'tiladi. Shu tarzda amalga oshirilgan bosqichli yondashuv o'quvchilarning o'zlashtirish samaradorligini oshiradi, o'qilgan axborotni eslab qolish, qayta ishlash va kundalik hayotda qo'llash ko'nikmasini shakllantiradi.

Amaliy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, rus tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan interaktiv metodlarning joriy etilishi o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi, mustaqil fikrlashi va tahliliy salohiyatini oshirgan. Masalan, matndagi asosiy ma'lumotlarni aniqlash va asosli xulosa chiqarish ko'nikmalari interaktiv metodlar asosida o'tilgan darslarda an'anaviy darslarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lgan.

Yana bir muhim jihat shundaki, interaktiv usullar orqali o'qish jarayonida o'quvchilarning ishtiroki, motivatsiyasi va rus tiliga bo'lgan qiziqishi ortgan. O'qish ko'nikmasini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar, jumladan, audiokitoblar, onlayn o'quv platformalari, video va multimediyaga resurslardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi. Bunday vositalar o'quvchilarda o'z-o'zini nazorat qilish, tahlil qilish va o'z ustida ishlash madaniyatini shakllantiradi.

Shu bilan birga, rus tilida o'qish ko'nikmalarini shakllantirishda qator muammolar ham uchraydi. Xususan, matnlardagi notanish so'z va iboralar, murakkab grammatik tuzilmalar, kontekstual anglashdagi qiyinchiliklar, madaniy tafovutlar hamda motivatsiya yetishmasligi kabi omillar ko'nikma shakllanishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, differensial yondashuv asosida mashg'ulotlarni tashkil etish, yordamchi materiallar, izohli lug'atlar, vizual va audiomateriallardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Shuningdek, matn ustida ishlashda kontekstual yondashuvni kuchaytirish, matn asosida video roliklar, infografikalar, klaster va diagrammalardan foydalanish ijobiy natijalar beradi.

O'qish ko'nikmasini rivojlantirishda innovatsion metodik yondashuvlar, jumladan, CLIL (Content and Language Integrated Learning), project-based learning, scenario-based learning va task-based learning kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish ayniqsa dolzarb hisoblanadi. Bunday yondashuvlar o'quvchilarda nafaqat lingvistik, balki kognitiv, sotsiomadaniy va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan nazariy va metodik asoslar rus tilida o'qish ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirishda muhim omillar hisoblanadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy interaktiv, kommunikativ va texnologik metodlarni uyg'unlashtirish orqali o'qituvchilar o'z oldilariga qo'ygan maqsadlarga yuqori darajada erishishlari mumkin. Ilmiy-nazariy tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni ko'rsatmoqda-ki, rus tilida o'qish ko'nikmasini rivojlantirishda integratsiyalashgan, bosqichma-bosqich va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar eng samarali metodlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Kelgusida rus tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion metodlarni yanada keng joriy etish, o'quvchilarning tahliliy va kreativ fikrlash salohiyatini rivojlantirish hamda o'qish jarayonini real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rus tilida o'qish ko'nikmalarini shakllantirishda interaktiv metodlardan foydalanish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Talabalar matn bilan faol ishlash, asosiy g'oyani ajratib olish, kontekstda yangi so'zlarni anglash, mustaqil fikr bildirish, xulosa chiqarish hamda kommunikativ savodxonlik ko'nikmalarini interaktiv metodlar asosida tezroq va barqarorroq egallaydi.

Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy o'qitish uslublariga nisbatan interaktiv yondashuvlar talabalar faolligini oshiradi, ularni dars jarayonining markaziy subyektiga aylantiradi hamda matn ustida mustaqil ishlashga undaydi. O'qish faqatgina til o'zlashtirish vositasi bo'lib qolmay, balki nutqiy, kognitiv va madaniy kompetensiyani shakllantiruvchi samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bunda o'qituvchining metodik mahorati, matn tanlashdagi estetik didi va darsni tashkil etishdagi kreativligi hal qiluvchi omil hisoblanadi.

O'tkazilgan eksperimentda qo'llangan "INSERT", klaster, "Venn diagrammasi", savol-javob, munozara, annotatsiya yozish va matn asosida fikrlash kabi interaktiv metodlar o'quvchilarda o'qish ko'nikmasining barcha tarkibiy komponentlarini kompleks ravishda shakllantirishga xizmat qildi. Ushbu yondashuvlar integratsiyalashgan, bosqichma-bosqich va shaxsga yo'naltirilgan metodlarning yuqori samaradorligini amaliy jihatdan tasdiqladi.

Shuningdek, o'qish ko'nikmasini rivojlantirishda faqat til bilimlari bilan chegaralanmaslik, balki o'quvchilarni mustaqil axborot izlash, uni tahlil qilish, mavzu yuzasidan asosli fikr bildirish, o'z mulohazasini mantiqiy asoslash kabi yuqori darajadagi kompetensiyalar bilan boyitish bugungi ta'lim tizimining dolzarb talablari hisoblanadi. Interaktiv metodlar aynan shu ko'nikmalarni shakllantirishda eng mos va zamonaviy metodik vosita sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Axmedova D. R. Rus tilini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi // Til va adabiyot ta'limi. – 2022. – №3. – B. 45–49.
2. G'ulomova N. K. Rus tili o'qitish jarayonida interaktiv mashg'ulotlar samaradorligi // Til va adabiyot ta'limi. – 2022. – №2. – B. 39–44.
3. Jalolova B. B. Oliy ta'limda xorijiy tilni o'qitishning metodik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020. – 248 b.
4. Norqulova N. Sh. Til o'rganishda o'quvchining psixologik tayyorgarligini shakllantirish // O'zbek tili va adabiyoti. – 2023. – №1. – B. 29–34.
5. Qayumova D. R. Xorijiy til o'qitish metodikasi: amaliy yondashuvlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 212 b.
6. Qodirova G. T. Rus tilini o'rganishda o'quv motivatsiyasini oshirish yo'llari // Filologik tadqiqotlar. – 2021. – №4. – B. 75–80.
7. Raximova D. O. Rus tili darslarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish metodlari // Innovatsion ta'lim. – 2023. – №1. – B. 54–59.
8. Saidova M. N. Rus tilini o'rganishda kommunikativ yondashuv va uning o'quvchilar nutqiga ta'siri // Filologiya mas'alalari. – 2021. – №2. – B. 63–68.
9. Sodiqova Z. A. Boshlang'ich ta'limda rus tilini o'rgatishda innovatsion texnologiyalar // Pedagogika va psixologiya. – 2022. – №2. – B. 90–95.
10. Tursunova M. Yu. Rus tili darslarida o'quvchilarning o'qish malakasini shakllantirishning zamonaviy usullari // Ta'lim va taraqqiyot. – 2021. – №3. – B. 101–105.
11. Axmedova D. R. Rus tilini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi // Til va adabiyot ta'limi. – 2022. – №3. – B. 45–49.
12. Galskova N. D., Gez N. I. Teoriya obucheniya inostrannym yazykam: Lingvodidaktika i metodika. – Moskva: Akademiya, 2017. – 336 s.
13. Qodirova G. T. Rus tilini o'rganishda o'quv motivatsiyasini oshirish yo'llari // Filologik tadqiqotlar. – 2021. – №4. – B. 75–80.
14. Larin A. A. Interaktivnye metody obucheniya: Teoriya i praktika. – Moskva: Yurayt, 2021. – 288 s.
15. Passov E. I. Kommunikativnaya metodika obucheniya inoyazychnomu chteniyu. – Moskva: Prosveshchenie, 2019. – 192 s.
16. Tursunova M. Yu. Rus tili darslarida o'quvchilarning o'qish malakasini shakllantirishning zamonaviy usullari // Ta'lim va taraqqiyot. – 2021. – №3. – B. 101–105.
17. Galskova N. D., Gez N. I. Teoriya obucheniya inostrannym yazykam: Lingvodidaktika i metodika. – Moskva: Akademiya, 2017. – 336 s.
18. Passov E. I. Kommunikativnaya metodika obucheniya inoyazychnomu chteniyu. – Moskva: Prosveshchenie, 2019. – 192 s.
19. Smirnova S. G. Psixolingvisticheskiye aspekty formirovaniya navykov chteniya. – Yekaterinburg: Uralskiy universitet, 2018. – 210 s.
20. Axmedova D. R. Rus tilini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi // Til va adabiyot ta'limi. – 2022. – №3. – B. 45–49.
21. Sodiqova Z. A. Boshlang'ich ta'limda rus tilini o'rgatishda innovatsion texnologiyalar // Pedagogika va psixologiya. – 2022. – №2. – B. 90–95.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.